

## “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislarin instituti va Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani xalq ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 56-sonli umumta’lim maktabida ta’lim sifati va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik qo‘llab – quvatlash uchun hamkorlikni tashkil etish bo‘yicha yo‘l xaritasiga asosan “Gidromelioratsiya” fakulteti “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasini mudiri t.f.d., professor A.Arifjanov boshchiligida bir guruh professor-o‘qituvchilari 56-sonli umumta’lim maktabiga tashrif buyurdilar.



Maktab direktori “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasini professor-o‘qituvchilarini mamnuniyat bilan kutib olib, maktabda o‘quvchilarga yaratilgan shart – sharoitlar bilan tanishtirdi. Shundan so‘ng “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasini professor-o‘qituvchilari bu yil oliygohga hujjat topshirishni mo‘ljallayotgan 11 sinf o‘quvchilari bilan muloqot va ochiq dars tashkil etdilar.



Ma‘ruzada kafedra mudiri, professor A.Arifjanov muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim» degan gaplarini yana bir bor keltirib o‘tdilar.



Kafedra dotsenti L.Samiev “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasini qoshida tashkil etilgan “Evrika” va “Hydroleaders” iqtidorli talabalar klublari faoliyati, suv xo‘jaligini raqamlashtirish va amaliy texnologiyalar borasida taqdimot qildi. Taqdimotdan so‘ng o‘quvchilar o‘rtasida qiziqarli tanlov tashkil etilib, tanlov g‘oliblari kafedraning esdalik sovg‘alari – badiiy adabiyotlar bilan taqdirlandilar. Yuqori saviyada tashkil etilgan ushbu muloqot va ochiq darslarso‘nggida barcha o‘quvchilarni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga ekskursiyaga taklif qilindi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**